



TIBBIYOT PSIXOLOGIYADA, PSIXOSOMATIKA KASALLIKLARINING O'ZIGA HOSLIKLARI

D.Q.Matkarimova UrDU

Psixologiya

2-kurs magistr

G.Sh.Nurjonova UrDU

2-kurs magistr psixologiya

Annantatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot psixologiyaning rivojlanish tarixi va tibbiyot psixologiyani tarmoqlaridan biri psixosomatik kasalliklarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В этой статье представлена история развития медицинской психологии и даны сведения о специфических психологических особенностях психосоматических заболеваний, одной из отраслей медицинской психологии.

Annantation: this article provides information on the history of the development of medical psychology and the specific psychological characteristics of psychosomatic diseases, one of the branches of medical psychology.

Kalit sozlar: Tibbiyot psixologiyasi, psixosomatika, insonlar, psixika, o'n ikki barmoqli ichak va oshqazon kasalliklari.

Ключевые слова: медицинская психология, психосоматика, болезни человека, психики, двенадцатиперстной кишки и Закавказья.

Key words: Medical Psychology, Psychosomatics, human beings, psyche, duodenal and Transcaucasian diseases.

Key words: Medical Psychology, Psychosomatics, human beings, psyche, duodenal and Transcaucasian diseases.

Bugungi kunda, mamlakatimiz tamonidan jismoniy va ruhiy barkamol shaxs bolib yetishishida juda ko'plab islohatlar olib borilmoqda. Jumladan 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-sonli "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlar fikrimiz yaqqol isbotidir[1].

Yurtimizda so'nggi yillarda tibbiyot psixologiyaning psixosomatik kasalliklarga kiruvchi kasalliklarni oldini olish va o'rganish dolzarb muammolardan biridir.

Odamzot paydo bo'libdiki, turli kasalliklarga qarshi kurashib kelgan.

Bemorni darddan xalos qilish uchun turli xil usullar o'ylab topilgan. Qadimda bemorlarni davolashda gilyohlarni ko'p qo'llashganini tarixiy manbalardan yaxshi bilamiz, lekin ruhiy ta'sir o'tkazish yo'li bilan davolash qachondan boshlanganligi bizga noma'lum. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgacha nomi ma'lum bo'lgan deyarli barcha tabiblar bemorlarni davolashda ruhiy ta'sir qilish usullaridan unumli foydalanishgan. Ularning aksariyati birinchi tabib organizmning o'zi va aynan organizm har qanday kasallikka qarshi kurashishi kerak, bizning vazifamiz esa unga yordam berishdir, deyishgan. Qadimgi davr adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, tibbiyot, falsafa va psixologiya fanlari chambarchas bog'lanib ketganligining guvohi bo'lamiz. Miloddan ilgari yashab o'tgan deyarli barcha



faylasuflar tibbiyot va psixologiyaga oid o'z fikrlarini yozib qoldirishgan, chunki ular ruhiy kuchlar manbaini inson miyasi bilan bog'lashgan. Tibbiyot psixologiyasiga bag'ishlangan dastlabki darslik XX asrning boshlarida mashhur nemis psixiatri va psixologi Ernst Krechmer tomonidan yaratildi. Uning tavsiyasi bilan tibbiyot psixologiyasi birinchi bor Yevropada alohida fan sifatida o'qitila boshlandi. Keyinchalik tibbiyot psixologiyasiga oid bir qancha darsliklar yaratildi va bu fan dunyoning barcha universitetlarida, tibbiyot institutlarida o'qitila boshlandi. Ta'kidlash lozimki, tibbiy psixolog sog'liqni saqlash tizimining barcha sohasida faoliyat ko'rsatadi. Ayniqsa, klinikada faoliyat ko'rsatuvchi psixolog bevosita bemorlar bilan ishlaydi, kasallik klinikasini o'rganadi va vrach kabi bemorlarni davolaydi. Shuning uchun aksariyat davlatlarda «Tibbiyot psixologiyasi» fani «Klinik psixologiya» deb ataladi.

XX asr boshida somatik klinikalarda psixologik yordamning yo'lga qo'yilishi Yevropa va AQSH da psixosomatik tibbiyot rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. 1818 yili Germaniyalik vrach **Yogann-Xristian Xaynrot** (1773–1843) birinchi bo'lib “psixosomatika” iborasini qo'llaydi. 1939 yili AQSH da “Psixosomatik tibbiyot” nomli jurnal ta'sis etiladi. Biroq o'sha yillari boshlangan Ikkinchi jahon urushi bu yo'nalishni ancha to'xtatib qo'yadi.

Tibbiyot psixologiyasining yaqin tarixda tutgan o'rni va asosiy davrlar Ta'bir joiz bo'lsa, 1960 yildan hozirgacha bo'lgan tarixiy davrlarni psixologik nuqtai nazardan 3 bosqichga bo'lib o'rganish zarur, deb hisoblaymiz.

Birinchi davr – 1960-1990 yillar. Tinch va sokin hayot davri. Ikkinchi jahon urushidan keyin yirik davlatlarda ijtimoiy hayotga urg'u berildi. Bu davr ichida nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan davlatlarda tibbiyot va klinik psixologiya, psixosomatik tibbiyot va psixoterapiya yanada rivojlandi. Barcha universitetlarda tibbiyot psixologiyasi va psixoterapiya kafedralari, klinik psixologiya fakultetlari tashkil etildi. Eng asosiysi, tibbiy va klinik psixologlarning amaliyotdagi faoliyati sezilarli darajada oshdi. Klinik psixologiya va tibbiyot psixologiyasining o'zi bir necha tarmoqlarga bo'linib, turli xil jamiyatlar, ya'ni psixosomatik tibbiyot, neyropsixologlar, psixoterapevtlar, somnologlar, psixoanalitiklar, suitsidologlar, sotsial psixologlar, patopsixologlar, gipnoterapevtlar jamiyatlari ko'paydi

Ikkinchi davr – bu 1991–2000 yillar. Ijtimoiy tuzum qulab, yangi davlatlar paydo bo'lishi davri. Insoniyat qoniga singib ketgan ijtimoiy tuzum quladi, jamiyat va uning qonunlariga qarashlar o'zgardi, millatlararo va dinlararo nizolar paydo bo'ldi. Yevropa va MDH davlatlarini qamrab olgan bunday inqilobiy o'zgarishlar kuchli ijtimoiy-psixologik muammolarni keltirib chiqardi, davlatlar ichida kichik-kichik kelishmovchiliklar yuzaga keldi, stress kasalliklari avj oldi va o'z joniga suiqasd qilish ko'paydi. Yangi paydo bo'lgan davlatlar va ijtimoiy muhit ko'p muammolarga yangi psixologik yondashuv uslublarini ishlab chiqishni taqozo etdi.

Uchinchi davr – 2001–2018 yillar. Ijtimoiy bo'xronlar va terroristik xavf-xatar davri. Sharq davlatlarida yuzaga kelgan ijtimoiy portlashlar, terrorism, xalqlar orasida migratsiyaning kuchayishi, lokal va yirik hududlarni qamrab olgan harbiy nizolar psixologlar oldiga katta vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, xalqlarning bir ijtimoiy tuzumdan

ikkinchi ijtimoiy tuzumga migratsiyasi migrantlarga ham, mahalliy aholi vakillariga ham katta ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, turli diniy konfessiyalar assimilyatsiyasi bilan bog'liq muammolar paydo bo'ldi, o'z joniga qasd qilishlar yanada ko'paydi. Bularning hammasi turli soha psixologlari oldiga muhim vazifalarni ko'ndalang qo'ydi. Yevropa shaharlarida psixoterapevtik klinikalardan tashkari, tez tibbiy-psixologik yordam va stress markazlari soni keskin ko'paydi [2].

Bugungi kunda psixosomatik kasallik haqida so'z borganda, o'tkir yoki doimiy stress sababli rivojlangan organik kasalliklar tushuniladi, ya'ni xafaqon kasalligi, o'n ikki barmoqli ichak va oshqozon yara kasalligi bronxial astma, yara kasalligi, qandli diabetlar kiradi.

Psixosomatik sindrom deganda esa o'tkir yoki doimiy stress sababli turli a'zolarida rivojlangan funksional buzilishlar tushuniladi. Bu atamaning sinonimlari juda ko'p va xilma-xil: "psixovegetativ sindrom", "somatogen depressiya", "niqoblangan depressiya", "vegetonevroz", "vegetativ distoniya", "somatonevroz" yoki "somatoform buzilishlar". Agar funksional buzilishlar somatik kasallik sababli rivojlansa, u holda somatopsixik sindrom atamasini qo'llash tavsiya etiladi. Biroq klinik amaliyotda «psixosomatik sindrom» atamasi keng qo'llaniladi. Agar funksional buzilishlar somatik kasallik oqibatida rivojlansa, bunga somatopsixik sindrom deb ataladi. Psixosomatik sindromlarning tibbiy amaliyotda ko'p uchraydigan turlari quyidagilardan iborat

1) psixogen kardialgiyalar; 2) yurak ritmining psixogen buzilishlari; 3) psevdorevmatizm; 4) psixogen astma; 5) oshqozon-ichak sistemasining buzilishlari; 6) psevdourologik sindromlar; 7) psixogen jinsiy buzilishlar; 8) psevdodermatologik sindromlar.

Psixosomatik kasalliklarga kiruvchi o'n ikki barmoqli ichak va oshqozon yara kasalliklar insonlarda ko'p uchraydi, bu kasallikning paydo bo'lishi va rivojlanishi insonlarning, emotsional holatlariga va kechinmalariga bog'liqdir.

Ruhiy siqilishlarda oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi (ko'ngil aynish, qayt qilish, ich ketish, qorinda og'riqlar) Gippokrat davridan buyon ma'lum. Tanada kechadigan har qanday jarayon miya ishtirokisiz bo'lmasligi Gippokrat, Galen va Dekart asarlarida qayd qilingan. Galen va Ibn Sino «qora o'tning» o't pufagida ko'payib ketishi ipoxondriyaga olib kelishini aytib o'tishgan. Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida oshqozonichak sohasida asab buzilishlari sababli uchraydigan turli belgilar va ularni davolash usullari haqida yozib qoldirgan. Hozirgi davrda o'tkir va surunkali asab buzilishlaridan so'ng rivojlanadigan oshqozon-ichak sohasidagi buzilishlarga ta'rif berish uchun turli atamalar taklif qilingan: «abdominal ipoxondriya», «abdominal depressiya», «psixogen gastrointestinal sindrom», «somatogen depressiya» va hokazo. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, agar yurak va nafas olish sistemalarining psixogen buzilishlarida bemorlarga nisbatan nevropatologga ko'proq murojaat qilishsa, oshqozon-ichak kasalliklari to'g'risida bunday xulosa qilish juda qiyin. Negaki, aksariyat bemorlar (hatto doktorlar ham) oshqozon-ichak sistemasi faoliyati buzilganda nevropatolog yoki psixologga murojaat qilishmaydi. Buni tushunish mumkin, albatta, chunki odamlarning tasavvurida «oshqozon miyadan uzoqda joylashgan va ularning bir-biriga aloqasi yo'q». O'tgan asrning boshlarida mashhur nevrolog olimlardan biri



(Shtryumpel A., 1902) «Dispepsiyalarning 70 foizi hissiy zo'riqishga bo'g'liq», degan edi. Ovqat hazm qilishning funksional buzilishlari, abdominalgiyalar, umumiy holsizlik, ishtahaning pasayishi kabi simptomlar, xuddi bosh og'rig'i va bosh aylanishi kabi nevrastenianing asosiy simptomlaridir (Silverberg M., 2002). O'tkir yoki doimiy ruhiy jarohatlar, jinsiy muammolar, qattiq qo'rquv kabi omillar oshqozon-ichak faoliyatining funksional buzilishlariga olib kelishi mumkin. Bunday paytlarda mutaxassislar «gastrointestinal beqarorlik» haqida so'z yuritishadi. Bu toifa odamlarda ruhiy siqilishlar paytida, albatta, oshqozon-ichak faoliyati buziladi, biroq bosh og'rig'i, bosh aylanishi, nafas yetishmovchiligi kabi simptomlar kuzatilmaydi mumkin. Shuning uchun ham ipoxondriyada o't yo'llari diskineziyasi, doimiy anoreksiya (ular ovqatni qorni ochganda emas, soatga qarab yeyishadi), qabziyat yoki diareya ko'p uchraydi. Bu simptomlar bemorning kayfiyatiga qarab, goh kuchayib, goh pasayib turadi. Aynan ana shu bemorlar terapevtik muolajalar uzoq vaqt yordam bermaganligidan tabiblarga murojaat qilishadi [3].

Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanib, tibbiyot psixologiyasi barcha tabiiy va aniq fanlar ta'siri ostida rivojlangan bo'lib, alohida fan sifatida butun dunyo tan olgan va hozirgi kunda ham rivojlanib bormoqda. Psixosomatik kasalliklarga kiruvchi o'n ikki barmoq ichak va oshqozon yara kasalliklar insonlarda ko'p uchrashining sabablaridan biri, emotsional holatlar va kechinmalariga bog'lik ekanligi uchun ham psixosomatik kasalliklarni o'rganish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent O'zbekiston 1992-yil.
2. [Psixosomatik tibbiyot - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Psixosomatik_tibbiyot)
3. Ibodullayev.Z "Tibbiyot psixologiyasi " Toshkent "Yangi asr avlodi" 2009